



MAKTABGACHA TA'LIM SOHASIDA TA'LIM-TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Malohat Akilovna Esonova
Qo`qon davlat universiteti dotsenti
Sodiqova Zabona Halimjon qizi
Qo`qon davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan maktabgacha ta`lim tizimida olib borilayotgan islohotlar to`g`risidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so`zlar: maktangacha ta`lim, islohot, bola, tarbiya, yo`l xaritasi, rivojlanish.

Абстрактный: В статье изложено мнение Президента Республики Узбекистан о реформах, проводимых в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, реформа, ребенок, образование, дорожная карта, развитие.

Abstract: The article presents the opinion of the President of the Republic of Uzbekistan on the reforms carried out in the preschool education system.

Key words: preschool education, reform, child, education, road map, development.

Bizning asosiy maqsadimiz – yoshlarning sifatli ta`lim olish imkoniyatiga ega bo`lishiga erishish, ularning o`z qobiliyatini va iste`dodini ro`yobga chiqarishi uchun barcha zarur sharoitlar yaratib berishdan iborat.

Sh.M. Mirziyoyev

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati ijtimoiy –ma`naviy qudrati hayot darajasining yuksalishi ta`lim tizimining raqobatdoshligi, ilm-fan tarqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois O`zbekiston Respublikasini yanada takomillashtirish bo`yicha Harakatlar strategiyasida ta`lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta`lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta`lim tizimini yaratish ko`zda tutilgan.

Uzluksiz ta`lim o`zaro mantiqiy izchiliika asosida bog`langan hamda soddadan murakkabga rivojlanib boruvchi va bir-birini taqqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta`limiy tizimdir. Maktabgacha ta`lim uzluksiz ta`lim tizimining birlamchi bo`g`ini hisoblangan soh abo`lib, har tomonlama sog`lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin tahlillar shuni ko`rsatadiki, oxirgi yillarda turli omillar ta`sirida maktabgacha ta`lim tizimida bollalarni maktab ta`limiga tayyorlash borasida rivojlanish o`rniga orqaga ketish hollari uchradi. Yil davomida maktabgacha yoshdagi bollalrni maktabgacha ta`lim tizimlariga qamrab olish ko`rsatkichlari osish tendensiyasi kuzatilmadi. Buning asosiy sabablari maktabgacha

ta`lim tizimlaridagi moddiy-texnik baza zamonaviy ta`lablarga javob bermay qolgan edi. Tizimni rivojlanmay qolishiga quyidagi omillar sabab bo`lgan:

- variativ dasturlar, bollalarni maktabga tayyorlash bo`yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi;
- rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli o`rganilmaganligi;
- faoliyat yuritayotgan aksariyat pedagog kadrlarning oliy ma`lumotli emasligi;
- ta`lim sifatining monitoringi yuritilmaganligi va h.k.

O`tgan qisha vaqt mobaynida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan maktabgacha ta`limga katta etibor qaratildi. Maktabgacha ta`limni rivojlantirish uchun bir qator qaror va farmonlar imzolandi. Jumladan Prezidentning:

- “2017-2021 yillarda maktabgacha ta`lim tizimi boshharuvini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to`g`risid”gi
- “O`zbekiston Respublikasi maktabgacha ta`lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to`g`risida”gi
- “Maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish bo`yicha 2017-2021 yillarga mo`ljallangan Dasturi” hamda respublikada maktabgacha tizimni yanada takomillashtirish bo`yicha “Yo`l xaritasi” va boshqa shu kabi qaror, farmonlari asosida ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta`lim tizimini yaxshilash borasida Prezidentimiz tomonidan bir qator quyidagi vazifalar topshirildi:

- ilg`or xorijiy tajibani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish;
- maktabgacha ta`lim sifatini oshirish;
- maktabgacha ta`lim muassalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash;
- ta`lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyitida keng qo`llaniladigan zamonaviy ta`lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish;
- maktabgacha ta`lim muassalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizimini takomillashtirish.

Maktabgacha talim muassalarida bolalarning tarbiyalanishi, aqliy rivojlanishi uchun yetarli shart sharoitlar yaratish rejalari belgilandi. Masalan, maktabgacha ta`lim muassalarida tarbiyalanuvchilarining intellektual qobiliyatlarini yanada rivojlantirish, salohiyatini oshirish uchun 5ta rivojlanish markazlari tashkil etildi. Maktabgacha ta`lim tizimining rivojlanish markazlarida ishlash har bir bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda eng samarali rivojlanishiga imkon beradigan tarzda, uning individual qobiliyatlarini, qiziqishlari, faoliyat darajasini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Mulkchilik shaklidan qat`iy nazar boshlang`ich ta`limga majburiy bir yillik bepul tayyorgarlik ko`rish uchun barcha guruhlarda rivojlanish markazlari, shu jumladan maktabgacha ta`limda kunboyi bo`lishi uchun sharoitlar yaratilgan. Zero, bollalarning har tomonlama rivojlanishi, tarbiyalanishi, o`qishi va uning maktabga samarali tayyorgarligini ta`minlash maqsadi nazarda tutilgan.

2019 yilning 16 dekabrda O‘zbekiston Respublikasining 595-sonli qarori bilan “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi [Qonuni](#) qabul qilinishi butun maktabgacha ta’lim tizimini tubdan o‘zgarishiga sabab bo‘ldi.

2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 2-bob 7-moddasida mamlakatdagi ta’lim tizimi turlarining birinchisi maktabgacha ta’lim va tarbiya deb kiritilib qo‘yilgan.

2021-yilning 22-martidan O‘zbekistda bolalalar uchun mo‘ljallangan ta’lim va ko‘ngil ochar telekanal o‘z faoliyatini boshladi. Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimiga katta etibor berish davom etmoqda. Zero, bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimidagi islohotlarda ham bolaning ijtimoiylashuvi va sifatli ta’lim-tarbiya olishi bosh omil sifatida qaralgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan), Toshkent 2022-yil
2. O‘zbekiston Respublikasi ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy –metodik markazi. Reggio Pedagogika: Kreativlikni rivojlantirishning samarali yo‘li. Toshkent-2025
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 29-avgustdagi “Maktabgacha ta’lim tashkiloti va pedagoglarning ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 323-sonli buyrug‘i.
4. Esonova Malakhat Akilovna. Formation of ideas about measuring different sizes using conditional measurement in children. International bulletin of applied science and technology. ISSN: 2750-3402 IBAST. UIF = 8.2 | SJIF = 5.955. 113- 116. Volume 3, Issue 10, October
5. Esonova M. A. Maktabgacha pedagogika, Darslik. Toshkent 2022-yil
6. Esonova M. A., Maktabgacha pedagogika, O‘quv qo‘llanma Toshkent 2022-yil